

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PROBLEMS OF LEGAL REGULATION OF THE USE OF GEOGRAPHICAL INDICATIONS

Jumumbetov Rasul Zhengizbaevich

Basic Doctoral Student

Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines key issues related to the legal regulation and enforcement of the use of geographical indications (GIs) from both theoretical and practical perspectives. It analyzes the conditions for lawful use of geographical indications, the scope of rights of right holders, and civil law remedies applied in cases of infringement. Special attention is paid to the correlation between national legislation and international standards, as well as challenges arising in law enforcement practice. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve the legal framework governing the use of geographical indications.

Keywords: geographical indication, right of use, legal regulation, intellectual property, protection of rights, infringement, civil law.

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografik ko'rsatkichlardan (GK) foydalanishni huquqiy ta'minlash bilan bog'liq dolzarb muammolar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Geografik ko'rsatkichlardan qonuniy foydalanish shartlari, huquq egalarining vakolatlari hamda huquqbuzarlik holatlarida qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy himoya choralari o'rganiladi. Milliy qonunchilik normalarining xalqaro standartlar bilan uyg'unligi va huquqni qo'llash amaliyotida uchraydigan muammolar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida geografik ko'rsatkichlardan foydalanishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: geografik ko'rsatkich, foydalanish huquqi, huquqiy ta'minlash, intellektual mulk, huquqni himoya qilish, huquqbuzarlik, fuqarolik huquqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N17>

Fuqarolik-huquqiy tartibga solish tizimida intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining kuchga kirganiga o'ttiz yil to'ldi. FKning 4-bo'limi hamda intellektual mulkka oid maxsus qonunlarda qism intellektual faoliyat natijalari hamda ularga tenglashtirilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar, shuningdek yuridik shaxslar va korxonalarni individuallashtirish vositalarining huquqiy muhofaza qilinadigan to'liq va yakunlangan ro'yxatini belgilab berdi.

Shu bilan birga, tovarlar va xizmatlar bozorlarining jadal xalqarolashuvi, savdo aylanmasining kengayishi va iqtisodiy munosabatlarning global rivojlanishi tovarlar hamda

xizmatlarni samarali individuallashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Mazkur sharoitda ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish, tovar va xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish, shuningdek muayyan hududlarning iqtisodiy va ishbilarmonlik nufuzini muhofaza qilishning muhim huquqiy mexanizmlaridan biri sifatida geografik ko'rsatkichlar hamda tovarlar kelib chiqqan joy nomi instituti alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga intilishi milliy qonunchilikni xalqaro majburiyatlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Jumladan, geografik ko'rsatkichlarni huquqiy muhofaza qilish sohasida qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha muayyan majburiyatlar zimmasiga yuklatildi. Shu nuqtai nazardan, "geografik ko'rsatkich" tushunchasi intellektual mulk obyektlari tizimida eng o'ziga xos, murakkab va ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan institutlardan biri hisoblanadi.

"Geografik ko'rsatkich" atamasi mustaqil huquqiy kategoriya sifatida nisbatan yaqin davrda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) amaliyotida shakllangan bo'lib, mazkur tashkilot ushbu atamani yangi xalqaro shartnoma predmeti sifatida ilk bor qo'llay boshlagan. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu shartnoma ustidagi ishlanmalar BIMT doirasida XX asrning 1970-yillaridan boshlab olib borilgan.

BIMTning dastlabki konsepsiyasiga muvofiq, "geografik ko'rsatkich" tushunchasi imkon boricha keng ma'noda qo'llanilishi ko'zda tutilgan bo'lib, u tovarning geografik kelib chiqish joyi haqida aniq tasavvur berishga qodir bo'lgan barcha nomlar va belgilarni qamrab olishi lozim edi. Bunda tovarning alohida sifatleri tabiiy yoki inson omili bilan bog'liq ekanligi yoki geografik nom faqatgina tovar ishlab chiqarilgan joyni ko'rsatishi kabi holatlar uni muayyan geografik hududga bog'lashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmasligi nazarda tutilgan.

Biroq, ushbu konsepsiyaning haddan tashqari keng qamrovli ekanligi va turli huquqiy holatlarni o'z ichiga olganligi natijasida "geografik ko'rsatkich" atamasini yagona, qisqa va aniq huquqiy ta'rif shaklida ifodalash imkoniyati paydo bo'lmadi. Natijada mazkur institut hech bir xalqaro shartnomada yagona va lakonik huquqiy ta'rif sifatida mustahkamlanmadi [1].

Intellektual mulk huquqlari tizimida "geografik ko'rsatkich" obyektini joriy etishdan ko'zlangan qonunchilik maqsadi muayyan sifatlarga, o'ziga xos xususiyatlarga va barqaror ishbilarmonlik nufuziga ega bo'lgan, biroq ayrim holatlar tufayli "tovar kelib chiqqan joy nomi" (keyingi o'rinlarda — TKJN) toifasiga kiritilishi mumkin bo'lmagan tovar belgilarini davlat ro'yxatidan o'tkazishdan iboratdir.

Tovar kelib chiqqan joy nomi tushunchasi amaldagi qonunchilikda ilgari mavjud bo'lgan huquqiy kategoriya hisoblanib, u muayyan geografik hududda ishlab chiqariladigan va aynan shu hududga xos bo'lgan alohida sifatlari, xususiyatlari yoki nufuzi bilan uzviy bog'langan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan belgini anglatadi.

Geografik ko'rsatkich bilan tovar kelib chiqqan joy nomi o'rtasidagi asosiy farq ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi hamda qo'yiladigan talablarning soddalashtirilganligida namoyon bo'ladi. Xususan, yangi qonunchilik yondashuviga muvofiq, geografik ko'rsatkich sifatida belgilanishi uchun tovar ishlab chiqarishning texnologik jarayonlaridan kamida biri – tovarning maxsus sifatlari, reputatsiyasi yoki boshqa ahamiyatli xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi bosqichi – tegishli geografik hududda amalga oshirilishi talab etiladi.

Qonun chiqaruvchi organ tovar kelib chiqqan joy nomini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ishlab chiqaruvchilar uchun bir qator qat'iy talablarni belgilagan. Jumladan, ishlab chiqaruvchi maxsus va hujjatlar bilan tasdiqlangan alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishi, shuningdek mazkur xususiyatlarni yuzaga keltirish imkonini beruvchi muayyan geografik hududda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishi shart.

Qabul qilingan "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq, huquqiy muhofaza beriladigan geografik ko'rsatkich deb tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan deb identifikatsiya qilish imkonini beruvchi belgilar e'tirof etiladi. Bunda tovarning ma'lum sifati, reputatsiyasi yoki boshqa muhim xususiyatlari ko'p jihatdan uning geografik kelib chiqishi bilan belgilangan bo'lishi lozim. Shu bilan birga, geografik obyekt hududida tovar ishlab chiqarishning kamida bitta bosqichi — uning sifati, reputatsiyasi yoki boshqa xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi texnologik jarayon amalga oshirilishi talab etiladi.

Geografik ko'rsatkich sifatida muayyan hududlarga xos bo'lgan regional brendlarni ham ro'yxatdan o'tkazish mumkin. Masalan, bunday belgilar qatoriga G'ijduvon shashligi, Samarqand nomi, Chust pichog'i, Chiroqchi jizi kabi nomlarni kiritish mumkin.

Qonunchilikka muvofiq, geografik ko'rsatkichlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish vakolati arizalarni ko'rib chiqish natijalari asosida Adliya vazirligi intellektual mulk departamentiga yuklatilgan. Geografik ko'rsatkich instituti dastlab o'n yil muddatga amal qiladi. Shu bilan birga, intellektual mulk huquqining ushbu yangi instituti – geografik ko'rsatkich – belgilangan talablarga javob beradigan tovarni ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan barcha davr mobaynida huquqiy muhofazaga ega bo'ladi.

Geografik ko'rsatkichni davlat ro'yxatidan o'tkazgan shaxslarga mazkur belgidan foydalanish bo'yicha maxsus huquq taqdim etiladi, biroq bu huquq barcha belgilangan talablarga qat'iy rioya qilingan taqdirdagina amal qiladi. Ta'kidlash joizki, geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazuvchi subyektlar sifatida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, shuningdek turli uyushmalar va assotsiatsiyalar ishtirok etishi mumkin.

Geografik ko'rsatkich unga taalluqli talablarga javob beradigan tovar ishlab chiqarish davom etgan butun muddat davomida huquqiy muhofaza qilinadi. Qonunchilikda asosiy muhofaza muddati sifatida o'n yillik davr belgilangan bo'lib, mazkur muddat tugagach, geografik ko'rsatkich patentini uzaytirish uchun tegishli ariza berish talab etiladi. Shu bilan birga, belgilangan talablarga rioya etilmagan holatlar aniqlansa, geografik ko'rsatkichga berilgan huquqiy muhofaza muddatidan oldin ham bekor qilinishi mumkin [2].

Intellektual mulk ikki tomonlama va ziddiyatli tabiatga ega, chunki bir tomondan u ijodiy faoliyatga asoslangan nomoddiy ne'mat sifatida namoyon bo'ladi, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy muomalada tovar sifatida ishtirok etadi va bozorda faoliyat yuritishi mumkin. Bu xususiyat intellektual mulkni nafaqat ma'naviy, balki mamlakatning iqtisodiy boyligi sifatida ham e'tirof etish zarurligini yuzaga keltiradi. Shu bois, yangi turdagi intellektual mulk obyektlarini yaratishga undashi mumkin bo'lgan ijodiy imkoniyatlarni ta'minlash uchun, masalan, tovarlar, ishlar va xizmatlarni individuallashtirish vositasiga qo'shimcha tarzda geografik ko'rsatkichlarni kiritish yo'li bilan, 2023-yil 15-noyabrdagi O'RQ-878-sonli qonuniga asosan FKga o'zgartishlar kiritilishi orqali, intellektual faoliyat obyektlarini muhofaza qilish va intellektual huquqlarni himoya qilishni kafolatlaydigan huquqiy asos yaratildi. Davlat tomonidan ta'minlanadigan muhofaza ijodiy salohiyatni ochishga va intellektual faoliyat

natijalari hamda individuallashtirish vositalarini mamlakatning tarixiy va madaniy merosini rivojlantirishga jalb etishga yordam beradi, shu yo'sinda O'zbekiston – 2030 strategiyasida belgilangan maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda bozor munosabatlari sharoitida yuridik shaxslarning va ular ishlab chiqaradigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning individuallashtirish vositalariga oid huquqlar instituti faol rivojlanmoqda. Bu munosabatlar turli xil tovarlar ishlab chiqaradigan va turli xizmatlar ko'rsatadigan ko'plab xo'jalik subyektlarini yuzaga keltirmoqda, ularning o'zini ham, tovarlarini ham, xizmatlarini ham tegishli individuallashtirishni talab qiladi. Milliy qonunchilik muhofaza qiladigan tovarlar, ishlar, xizmatlar va tashkilotlarni individuallashtirish vositalariga tegishli intellektual mulk obyektlari ro'yxati kengayib bormoqda, va firma nomlari, tovar belgilari, tijorat belgilari va tovarlarning kelib chiqish joyi nomlariga yangi obyekt – GK qo'shildi.

Individuallashtirish vositalari (IV) ham, intellektual faoliyat natijalari ham – moddiy jihatdan predmet emas, shuning uchun ularga mulk huquqi qo'llanilmaydi, va huquqiy muhofaza faqat huquq egasining istisno huquqlari orqali ta'minlanishi lozim.

Tadqiqotning dolzarbligi ayrim intellektual mulk obyektlariga (tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari (TKJN) va GK nisbatan huquq egasi tomonidan istisno huquqdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq, ya'ni bir geografik obyekt hududida tovar ishlab chiqaradigan istalgan shaxsning roziligisiz ham istisno huquqdan foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi. Asosiy tadqiqot predmeti esa – ushbu intellektual huquqlarni olish tartibida ishtirok etuvchi subyektlar tarkibi, ularning xususiyatli va farqli jihatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani tahlil qilish, shuningdek tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari va GKlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlash masalalari hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda tovarlarning kelib chiqish ko'rsatkichlari yoki kelib chiqish joyi nomini sanoat mulki obyekti sifatida e'tirof etgan birinchi normativ hujjat Parij konvensiyasi hisoblanadi. U import qilinayotgan mahsulotga nisbatan yolg'on kelib chiqish ko'rsatkichlari ishlatilganda, ana shunday ko'rsatkichlarga huquqiy muhofaza berilgan davlatlarga olib kirilishini to'xtatib turish chorasini nazarda tutdi [3].

Ya'ni, mazkur xalqaro shartnoma to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqish ko'rsatkichlarini yoki kelib chiqish joyi nomlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlashni nazarda tutmagan, balki tovarlarning haqiqiy kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarga tajovuz qilinganda davlatlarning himoya choralari ta'minlash vazifasini qo'ygan.

Tovarlarda yolg'on yoki chalkashuvga olib keluvchi kelib chiqish ko'rsatkichlarini to'xtatish to'g'risidagi Madrid kelishuvi esa bunday ko'rsatkichlarni to'xtatish uchun sanksiyalarni yanada batafsil belgilab berdi [4]. Bu yerda ham tovarlarning kelib chiqish ko'rsatkichlarini himoya qilish choralari nazarda tutilgan.

Lissabon kelishuvi esa tovarlarning kelib chiqish joyi nomlarini muhofaza qilish va ularni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha kelishuv bo'lib, kelib chiqish joyi nomini ta'riflab berdi, ya'ni muayyan mamlakat, hudud yoki mahallada ishlab chiqarilgan, o'ziga xos xususiyatlari aynan shu geografik muhit (tabiiy va inson omili) bilan belgilanadigan mahsulotni bildiruvchi nomni nazarda tutdi [5]. Ushbu kelishuvda kelib chiqish joyi nomlarini va geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi belgilandi, hamda ro'yxatdan o'tgan nomni noqonuniy egallash yoki taqlid qilishdan himoya qilish choralari ko'rsatib o'tildi.

GK va tovarlarning kelib chiqish joyi nomlarini muhofaza qilishni mustahkamlovchi asosiy milliy hujjat FK hisoblanadi, xususan, FKning 1032-moddasida ushbu intellektual mulk obyektlari nazarda tutilganga tegishli atamalarni belgilaydi.

GK – bu tovarning geografik kelib chiqish hududi bilan bog'liq va undan ta'sirlanuvchi sifat, obro' kabi asosiy xususiyatlarini belgilaydigan ko'rsatkichdir. Shu geografik obyekt hududida tovarni ishlab chiqarish jarayonining kamida bir bosqichi amalga oshirilishi kerak, bu bosqich tovarning xususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

TKCHJN esa – tovarga nisbatan qo'llaniladigan, o'sha geografik obyekt (mamlakat, shahar, qishloq yoki boshqa hudud) nomini yoki undan kelib chiqqan nomni bildiradigan belgidir, u tovarga nisbatan qo'llanilishi orqali mashhurlikka ega bo'lgan va o'sha geografik hududga tegishli barcha tabiiy va (yoki) inson omillarini qamrab oladi.

GKdan farqli o'laroq, TKCHJN uchun tovarni ishlab chiqarishning barcha bosqichlari ana shu geografik hududda amalga oshirilishi va tovarning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi shart.

GK va TKCHJN o'rtasidagi farqlar tovarni ishlab chiqarish bosqichlari bilan bog'liq farqlardan tashqari quyidagicha ham ko'rinadi:

- ro'yxatdan o'tkaziladigan belgida: GK uchun tovar kelib chiqish joyi bilan bog'liq istalgan belgi bo'lishi mumkin, TKCHJN uchun esa faqat so'z belgisi bo'lishi mumkin;

- tovar xususiyatlarida: GK uchun tovar haqidagi ma'lumotni ariza beruvchi taqdim etadi, TKJN uchun esa tovarning o'ziga xos xususiyatlarini vakolatli organlar belgilaydi;

- individuallashtirish vositasining tanilishida: GK uchun mahsulot va uning geografik kelib chiqish hududini aniqlash mumkinligi kifoya, TKJN uchun esa tovarga nisbatan foydalanish orqali mashhur bo'lgan nom talab qilinadi.

V.I. Yeremenkoning fikriga ko'ra, geografik ko'rsatkich ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining joylashgan manzilini ko'rsatadigan, lekin tovarning sifatiga kafolat bermaydigan oddiy ko'rsatkich hisoblanuvchi kelib chiqish ko'rsatkichi va tovarlarning kelib chiqish joyi nomi o'rtasida o'rtacha o'rinni egallaydi. Tovarning sifati esa aynan tabiiy va (yoki) inson omili ta'sirida o'ziga xos bo'lib, belgilangan geografik obyekt bilan bog'liqdir [6].

N.S. Mixaylova esa geografik ko'rsatkichni umumiy huquqiy toifa sifatida, tovarlarning kelib chiqish joyi nomini esa geografik ko'rsatkichning bir turi sifatida ko'rib chiqishni tavsiya qiladi [7].

Shunday qilib, tovarlarning kelib chiqish joyi nomi va geografik ko'rsatkich o'zaro umumiy va xususiy munosabatda turishini aytish mumkin.

Intellektual mulk obyektlari turli xildir, jumladan ularning kelib chiqish manbasi ham turlicha, ammo ularning barchasi bilim shaklidagi nomoddiy ne'mat hisoblanadi, ya'ni biror narsa haqidagi ma'lumotlar majmuasini tashkil qiladi. Bu bilimlarni shartli ravishda ikki toifaga bo'lish mumkin: "insonning intellektual mehnati natijasi bo'lgan bilimlar, ya'ni muayyan omillarning o'zaro ta'siri natijasida yangi mahsulot yaratiladigan bilimlar; va intellektual mehnat natijasi hisoblanmaydigan bilimlar yoki ma'lumotlar, shuningdek, ba'zi hollarda bir vaqtning o'zida ham intellektual mehnat natijasi, ham ijodiy faoliyatdan xoli ma'lumot sifatida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar" (masalan, tijorat sirlari)[8].

Shu sababli intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha huquqiy tartibga solish ularning turli xususiyatlariga qarab shakllantiriladi: mazmun-mohiyati bilan bog'liq obyektlar (iqtisodiy muomala uchun tijoriy qiymatga ega bo'lgan texnik yechimlarni muhofaza

qilish, masalan patentlar orqali amalga oshiriladi va ularning muhofaza muddati kamida 10-yildan 20-yilgacha davom etadi); shakl (natura) ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar (fan, adabiyot va san'at asarlari), ular uchun muallif prezumpsiyasi qo'llaniladi, ya'ni maxsus muhofaza tartibi talab etilmaydi va asar "ommaga yetkazilgan" paytdan muhofaza qilinadi, muhofaza muallif umri davomida va uning o'limidan keyin 70-yil mobaynida amal qiladi; muallifi yo'q natijalar ham mavjud bo'lib, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin muhofaza qilinadi. Bular yuridik shaxslarni, tovarlarni, ishlar yoki xizmatlarni individuallashtirish vositalari hisoblanadi (tovar belgilari, firma nomlari, tijorat belgisi, geografik ko'rsatkichlar, tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari) [9].

O'RQ-757-son qonunning 26-moddasi birinchi qismiga binoan guvohnomaning egasiga GKdan qonunga zid bo'lmagan har qanday usulda foydalanish mumkin. Bundan usullarga quyidagilarni kiritisa bo'ladi:

"1) ishlab chiqarilayotgan, sotuvga taqdim etilayotgan, sotilayotgan, ko'rgazmalarda va yarmarkalarda namoyish etilayotgan yoki boshqacha tarzda O'zR hududida fuqarolik muomalasiga kiritilayotgan yoxud shu maqsadda saqlanayotgan yoki tashilayotgan yoxud O'zR hududiga olib kirilayotgan tovarlarda, tovarlarning yorliqlarida, o'rovlarida;

2) tovarlarni fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog'liq bo'lgan blankalarda, hisobvaraqlarda, boshqa hujjatlarda va bosma nashrlarda;

3) tovarlarni sotish to'g'risidagi takliflarda, shuningdek e'lonlarda, peshlavhalarda va reklamada foydalanish huquqi tegishlidir".

Mazkur usullar borasida xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsa, ular bir qadar keng ekanligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, RF GKning 1519-moddasi 2-qismida O'zR qonunchilikda sanab o'tilgan usullardan tashqari "Internet tarmog'ida, jumladan domen nomi va boshqa elektron manzil ko'rsatish usulida" foydalanish mumkinligi nazarda tutilgan. Fikrimizcha, mazkur usul O'RQ-757-son qonunning 26-moddasi birinchi qismiga kiritilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Лиджеева К.В. Правовая охрана географических указаний в Российской Федерации // Вестник Калмыцкого института гуманитарных исследований РАН. – 2013. – №1. – С. 107.
2. Рузакова О.А., Аабричный С.Ю. Новеллы законодательства об интеллектуальных правах 2017 года и перспективы его развития // Имущественные отношения в Российской Федерации. – 2018. – №3.
3. Парижская конвенция по охране промышленной собственности [Электронный ресурс] // Конвенции и соглашения – Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС). – Электрон. текстовые дан. – 2023. – Режим доступа: <https://wipo.int/ru/text/287556>
4. Мадридское соглашение о пресечении ложных или вводящих в заблуждение указаний происхождения на товарах [Электронный ресурс] // Конвенции и соглашения – Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС). – Электрон. текстовые дан. – 2023. – Режим доступа: <https://wipo.int/ru/text/286776>
5. Лиссабонское соглашение об охране наименований мест происхождения и их международной регистрации [Электронный ресурс] // Конвенции и соглашения – Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС). – Электрон. текстовые дан. – 2023. – Режим доступа: <https://wipo.int/ru/text/401406>

6. Еременко В.И. О введении правовой охраны географического указания в Российской Федерации // Государство и право. 2021. № 1. С. 72-80.
7. Михайлова Н. С. Охрана географических указаний в Российской Федерации // Ex jure. 2019. № 2. С. 76–86. DOI: 10.17072/2619-0648-2019-2-76-89
8. Калина И.И., Типологизация объектов интеллектуальной собственности [Электронный ресурс] // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. / Саратов, 2011 г. Режим доступа : <https://cyberleninka.ru/article/n/tipologizatsiya-obektov-intellektualnoy-sobstvennosti>
9. Ширкова И.В. Правовая охрана или защита наименования мест происхождения товаров и географического указания // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского Юридические науки. – 2023. – Т. 9 (75). № 2. – С. 236–242.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).